



# Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

## SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATIGA KORPORATIV TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

Raxmonova Manzura<sup>1</sup>

Mamayusupova Dildora<sup>2</sup>

Muhamadjonov Ozodbek<sup>3</sup>

Akbarov Nodirbek<sup>4</sup>

*Qo'qon davlat universiteti*

### KEYWORDS

sinergetik yondashuv,  
tarbiyaviy faoliyat, bo'lajak  
o'qituvchi, korporativ  
tayyorlash, pedagogik  
texnologiya, innovatsion  
yondashuv, professional  
kompetensiya.

### ABSTRACT

Maqolada sinergetik yondashuvning mohiyati va u orqali bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning korporativ texnologiyalari yoritilgan. Sinergetika - o'zaro bog'liq tizimlar o'rtaida uyg'unlikni ta'minlashga asoslangan nazariya sifatida, pedagogik jarayonda o'qituvchi shaxsining shakllanishi va tarbiyaviy kompetensiyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Maqolada ta'lim jarayoniga ko'p komponentli, tizimli, integrativ yondashuvlar asosida yondashilib, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda hamkorlik, refleksiya, mustaqil fikrlash va o'zini anglash kabi ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida korporativ o'qitish asosida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari tahlil etilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15557178](https://doi.org/10.5281/zenodo.15557178)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning tarbiyaviy salohiyati, ularning shaxsiy kompetensiyasi, kasbiy tayyorgarligi va refleksiv fikrlashi yuqori darajada bo'lishi zarur. Ayniqsa, tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik – nafaqat bilimlar yig'indisi, balki shaxsiy pozitsiya, kasbiy madaniyat va jamoaviy hamkorlikni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan sinergetik yondashuv o'qituvchi tayyorlash tizimida zamonaviy innovatsion vosita sifatida

<sup>1</sup> Qo'qon DU Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

<sup>2</sup> Qo'qon davlat universiteti Maktab menejmenti talabasi

<sup>3</sup> Qo'qon davlat universiteti Maktab menejmenti talabasi

<sup>4</sup> Qo'qon davlat universiteti Maktab menejmenti talabasi

dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sinergetik yondashuvning pedagogik mohiyati Sinergetika – bu murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini boshqaruvi, o‘zgarishi va o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, pedagogikada bu yondashuv shaxslararo munosabatlar, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faol ijtimoiy hamkorligiga asoslanadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikativ, emotsional va intellektual aloqalar sinergetik tizim sifatida ko‘riladi. Sinergetika bugungi kunda talaba-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Talabalarning yangi tendentsiyalar asosida ishlashga bo‘lgan qiziqishlari yana bir dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibida turibdi. Ijodiy va prognostik fikrlash talabalarga o‘z-o‘zini tashkil qilish tizimi sifatida ishlashga yordam beradi. Yangi o‘ziga xos uslubni to‘g’ri ishlab chiqish o‘quv jarayoniga katta hissa qo‘sadi. Ochiqlik, chiziqli bo‘lmaganlik kabi sinergetik mexanizmlar, mulohazalar talaba-yoshlarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy atamalarini yaratishda, ularni o‘ziga xos tizim sifatida belgilashda yetakchi hisoblanadi. Sinergetika talabalarni o‘qitish va tarbiyalashning zamonaviy atamalarini yaratishda katta yordam berishi mumkin. Sinergetik yondashuv - bu rivojlanayotgan, tizimli tashkil etilgan tizimlarning ilmiy sohasi bo‘lib, unga yosh mutaxassis kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini ham kiritish mumkin. Ushbu yondashuv ko‘p o‘lchovlilik, murakkablik va bilish jarayonlarining muqobilligi doirasida talaba-yoshlarning o‘zini-o‘zi tashkillashi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishda tasodifiylikning muhim rolini tan olish katta ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, integral sinergetik tizimni tashkil etuvchi bir nechta murakkab tizim komponentlarini o‘z ichiga olgan tizimlar aslida xilma- xillik, tasodifiylik, o‘z-o‘zidan va oldindan aytib bo‘lmaydigan sharoitlarda amalga oshiriladi. Muammo shundaki, bo‘lajak yosh mutaxassis amaliy va ilmiy faoliyatda doimiy ravishda paydo bo‘ladigan o‘zgarishlarga tez munosabatda bo‘lish qobiliyati va kasbiy harakatchanligiga ega bo‘lishi kerak. Qisacha aytganda, sinergetik yondashuv zamonaviy oliy ta’lim muassasasida talabalarni tayyorlashni takomillashtirishning asosiy masalalaridan biridir. Sinergetik yondashuv orqali inson hayotining turli tomonlari o‘rganiladi. Shunday qilib, masalan, sinergetik nuqtai nazardan, hujatlarning ijtimoiy tabiatini va roli ko‘rib chiqiladi. Sinergetika paradigmasida ilmiy bilimlarning ayrim sohalarini tavsiflashga urinishlar qayd etilgan. O‘zgarishlar sharoitida o‘z-o‘zini tashkil etuvchi ochiq kompleks tizim sifatida ta’lim jarayoni o‘rganiladi, o‘ta murakkab, o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida xorijiy tillarini o‘qitish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy jadal rivojlanayotgan dunyoda ko‘p maqsadli, global qarashga, jamiyatning murakkab muammolarini tahlil qilishga qodir, turli muammolarni hal qilishga tayyor shaxsni shakllantirishga katta talab mavjud. Hozirgi dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi o‘qitish tizimiga uni yanada rivojlantirish strategiyasini nazarda tutuvchi mutlaqo yangicha yondashuvga ehtiyoj sezmoqda. Sinergetik yondashuvda ta’limni insonparvarlashtirish barcha sohalarda o‘sishning muhim qismidir. U global ekologik va ma’naviy muammolarni sinergetik usullar yordamida hal qilishga yordam beradi. Bu ekologik inqiroz tahdidini yengib o‘tishning jamiyat va tabiat taraqqiyotining amalda yagona yo‘lidir. Bunday sharoitda zamonaviy jamiyat sivilizatsiyaning doimiy rivojlanishining zarur sharti bo‘lgan shaxsning rivojlanishi, uning madaniy ongini to‘g’ri

tanlashni belgilaydi.

Sinергетик yondashuvning pedagogik mohiyati

Sinергетика – bu murakkab tizimlarning o‘z-o‘zini boshqaruvi, o‘zgarishi va o‘zaro ta’sirini o‘рганадиган ilmiy yo‘nalish bo‘lib, pedagogikada bu yondashuv shaxslararo munosabatlar, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faol ijtimoiy hamkorligiga asoslanadi. Ushbu yondashuvda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi kommunikativ, emotsiyal va intellektual aloqalar sinergetik tizim sifatida ko‘riladi.

Pedagogik sinergetika tamoyillari

Tizimlilik va butunlik

O‘zaro bog‘liqlik va aks ta’sir

Dinamik rivojlanish va o‘z-o‘zini tashkil etish;

Ijodiy muhit va adaptivlik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda korporativ texnologiyalar

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda korporativ yondashuvda quyidagi texnologiyalar qo‘llanilishi mumkin:

1. Korporativ treninglar va mahorat darslari

Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, guruhlarda muammoli topshiriqlarni yechish orqali tarbiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish.

2. Tashabbusli loyiha faoliyati

Bo‘lajak o‘qituvchilarning tarbiyaviy loyihalarni ishlab chiqishi va ularni mакtab sharoitida tajriba tariqasida sinab ko‘rishi.

3. Refleksiv tahlil texnologiyasi

O‘quvchilarning xatti-harakatlarini baholash, tarbiyaviy faoliyat samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish usullarini ishlab chiqish.

4. Mentorlik va korporativ murabbiylit tizimi

Tajribali pedagoglar tomonidan boshlovchi o‘qituvchilarga tarbiyaviy faoliyatda metodik ko‘mak berish.

Sinергетик yondashuvning amaliy samara beruvchi jihatlari

Sinергетик model asosida o‘qituvchi shaxsi quyidagi yo‘nalishlarda shakllanadi:

Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi

Jamoa bilan ishslash madaniyati

Kasbiy empatiya va kommunikativ kompetensiya

Shaxsiy refleksiya va o‘zini anglash qobiliyati

Bu texnologiyalar pedagogik muhitni innovatsion, ijodiy va o‘zgaruvchan qilishga xizmat qiladi. Har bir bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishi ularning individual xususiyatlari va jamoaviy muhitdagi ishtirokiga bog‘liq.

## Foydalanilgan adabiyyotlar

1. Хакимова Н.М. Синергетический подход в системе профессиональной подготовки педагогов. – Ташкент: Фан, 2021.

2. Назарова Р.Х. Pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2020.

3. Xodjayev N. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Muhamedova Z. O'qituvchining tarbiyaviy kompetensiyasini shakllantirish asoslari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2022.
5. Дьяченко В.К. Коллективная учебная деятельность. – Москва: Просвещение, 2018.
6. Ушаков Д.В. Синергетика и образование: методологические основания. – Санкт-Петербург: Питер, 2021.
7. UNESCO. Teacher education through partnerships and networks. – Paris, 2020.